

KELASI ZAMON SHAKLLARI VA ASIMMETRIYA

Ochilova Gulhayo

JDPU magistranti

Feruza Jumayeva

Ilmiy rahbar: dots.,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fe'llar harakatni ifodalashidan tashqari gap tarkibida turli ma'noviy, uslubiy xususiyatlarni ham ochib berishida shakl va ma'no nomutanosibligi, ya'ni asimmetriyaning tutgan o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlari: Fe'l, kelasi zamon fe'li, semantika, kelasi zamon gumon fe'li, shakl, ma'no.

ABSTRACT

In this article, the role of form and meaning disproportion, i.e., asymmetry, is studied in the fact that verbs, in addition to expressing action, reveal various spiritual and stylistic features in the structure of the sentence.

Keywords: Verb, future tense verb, semantics, future tense verb,

Fe'ning grammatik mohiyati shundan iboratki, fe'l asosiy so'z turkumidir, chunki fe'llar gapning zaruriy komponenti hisoblanadi. O'z ma'nosi, grammatik kategoriyalari va sintaktik vazifalari bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Fe'llar semantik jihatdan ish-harakat, holatni ifodalasa, morfologik jihatdan zamon, shaxs-son, mayl, nisbat kabi grammatik kategoriyalarni bildiradi. Fe'l ana shu ish-harakatni, holatni, munosabatni zamon nuqtai nazaridan aniqlaydi.

Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytilayotgan vaqtdan so‘ng yuz berishini bildiradi. Kelasi zamon fe’llari asosga -a, -y, -(a)r, -ur, -ajak, -moqchi kabi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan hosil qilinadi. Bu qo‘shimchalardan keyin shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shiladi¹⁸. M., boraman, o‘qiyman, borajakman, borgayman, boradigan ekan, bormoqchi ekan. Undosh bilan tugagan fe’l asoslariga kelasi zamonning -a, -ar kabi, unli bilan tugagan fe’l asoslariga -y, -r qo‘shimchalari qo‘shiladi. Bo‘lishsiz fe’l shakllariga esa -s qo‘shimchasi qo‘shiladi va turli ma’nolarni anglatadi: M., istak, payt, xohish, odatlanganlik, maqsad, niyat, ta’kidlash kabi ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan shakl va ma’no nomutanosibligi, ya’ni asimmetriya hodisasi ro‘y beradi. Ana shu shakl va ma’no nomutanosibligini fe’lning asosiy grammatik shakllaridan biri bo‘lgan kelasi zamon qo‘shimchalari misolida o‘rganamiz.

Oddiy kelasi zamon fe’llari. Bunday fe’llar kelasida bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakat-holat ma’nosini bildiradi. M., keladi, so‘raydi. Shu kabi fe’llar odatda, ba’zan, ba’zida, har doim, doimo, doim kabi so‘zlar bilan birga kelib davomli harakat ma’nosini ifodalaydi. Oddiy kelasi zamon fe’li fe’l asosiga -a, -y qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi va quyidagi ma’nolarni bildiradi:

Harakatning bajarilishi biror vaqt bilan chegaralanmaydi, u predmet yoki shaxsning doimiy belgisiga aylanganlik ma’nosini bildiradi. M., Qiziq qushlar yomg‘irda qochib ketishmaydi. Qarg‘a, zag‘cha, qaldirg‘och bemalol uchadi. (I. Sulton, “Genetik”).

Shaxs yoki predmetning odatdagi, doimiy harakat-holat ma’nosini anglatadi. M., Shu sabab har kuni quyosh chiqqach, o‘roq-qopimni olib, mana shu dalaga kelaman. (I. Sulton, “Genetik”). U uzumzor egalaridan biri bo‘lib, sarvati behisob, lekin ne yoziqki, farzandi yo‘q, shundan ko‘p iztirob chekadi. (I. Sulton, “Genetik”).

Harakatning bajarilishi so‘zlovchi nutq so‘zlayotgan paytga oid bo‘lib, hozirgi zamon ma’nosini ifodalaydi. Bunday gaplarda hozir, hozirda so‘zlarini qo‘yib o‘qish

¹⁸ F. Jumayeva. Ona tilidan saboqlar. Qamar- media// Toshkent.2020.b. 198.

mumkin bo‘ladi. M., Bu dalani yoqtiraman. Naridagi toshloqda (hozir) jilg‘a oqadi. (I. Sulton, “Genetik”).

Bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa haqida hikoya qilish ma’nosini bildiradi. M., Bo‘tana suvlar haslarni aralashtirib oqizadi, ba’zan yalpiz yaproqlarni uzib yuboradi, ular ham haslarga qo‘shilib oqadi. (I. Sulton, “Genetik”).

Kelajakda bajarilishi kerak bo‘lgan harakat ma’nosini anglatadi. M., “Ha, albatta, bo‘laman”, deb takrorladim o‘zimga-o‘zim, - bularga, menga ishonchsizlik bilan qarayotgan mana shu qadrdon o‘qituvchilarimga o‘zimning kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman. (X. To‘xtaboyev, “Sariq devni minib”).

Harakat-holatning kelgusida amalga oshishini istash, xohlash ma’nolarini bildirib keladi. M., - Chiqmaydi! –Sakkiz kishi bir ovozdan takrorlashdi. -Bo‘lmasa zootexnik bo‘laman. (X. To‘xtaboyev, “Sariq devni minib”).

Kelasi zamon maqsad fe’llari. Bunday fe’llar kelasi zamonda bajarilishi yoki bajarilmasligi maqsad qilingan harakat-holat ma’nosini bildiradi. Kelasi zamon maqsad fe’llari -moqchi, -adigan, -ydigan qo‘shimchalarini fe’l asosiga qo‘shish orqali hosil qilinadi¹⁹. Bu qo‘shimchalardan keyin shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shilib keladi va turli ma’nolarni yuzaga chiqaradi:

-moqchi affiksini olgan fe’l shakli kelgusida bajarilishi maqsad qilingan harakat ma’nosini bildiradi. M., Men kelgusida o‘qituvchi bo‘lmoqchiman.

Kelajakda bajarilishi niyat qilingan harakat ma’nosini ifodalab keladi. M., Men esa o‘sha bayroq qay mahal quyi tushirilib qo‘yilishi haqida aytib bermoqchiman. (I. Sulton, “Genetik”).

Harakatni kelajakda amalga oshirishni qat’iy qaror qilish, ta’kidlash ma’nosini anglatadi. Bunga qarshi o‘jar cho‘loq: “Avval quda qilib, keyincha o‘zim ham shaharga ko‘chmoqchiman”, deb javob berdi. (I. Sulton, “Genetik”).

Kelasi zamon gumon fe’llari. Kelasi zamonda bajarilishi yoki bajarilmasligi noaniq bo‘lgan harakat-holat ma’nosini bildiradi. - (a)r shakli kelasi zamoni

¹⁹ F. Jumayeva. Ona tilidan saboqlar.Qamar- media// Toshkent.2020.b. 199.

gumon, taxmin yo‘li bilan ifodalaydi. Fe‘l asosiga -r, -ar, -ma/s qo‘shimchalari, undan keyin shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi.

-(a)r shakli orqali quyidagi ma’nolar yuzaga chiqadi:

Kelajakda bajarilishi yoki bajarilmasligi noaniq bo‘lgan harakat ma’nosini bildiradi. Bunday gaplarga ehtimol, balki kabi so‘zlarini kiritish mumkin bo‘ladi va harakatning bajarilishi taxmin qilinadi. M., Ehtimol juda qiziqdir, o‘rganib olsam, bir kun ish berib qolar, deb o‘yladim-da. (X. To‘xtaboyev, “Sariq devni minib”). (Balki) Ertaga kelar.

Kelgusidagi harakatni amalga oshirishga da’vat etish, undash ma’nosini bildiradi. M., - Xo‘p-xo‘p, boring, kechki obiyovg‘onga kelarsiz, albatta? (G‘.G‘ulom, “Shum bola”). Biroz o‘tirib uyga chiqarsan – uyga chiq degan ma’noda.

So‘zlovchining harakatga maslahat munosabatini ifodalaydi. M., Gaplarimni o‘ylab ko‘rarsiz.

Harakatning bajarilishi uchun imkoniyat yo‘qligi, ilojsizlik ma’nolarini ham bildirib keladi. M., Mahallamizdagi meni taniydigan qo‘ni-qo‘shnilarimiz mana shular, esimdan chiqqanlari bo‘lsa, esimga tushganda aytarman. (G‘.G‘ulom, “Shum bola”). Bu mashinani pulim bo‘lganda olarman. Ya’ni hozir ololmayman, imkonim yo‘q.

Kelajakda bajarilishi kutilayotgan harakatni istash ma’nosini anglatadi. M., Ertaga kutubxonaga birga borarmiz.

-(a)r shaklidan so‘ng ekan, emish to‘liqsiz fe‘llari qo‘shilganda gumon ma’nosini emas, balki eshitganlik ma’nosini bildiradi. M., Hizr - o‘zimizning oqsoqollarga o‘xshab ketadigan bir chol bo‘lib, ko‘zga goh ko‘rinib, goh ko‘rinmay, mana shunday kechalarda el oralab yurar, ro‘para kelganlarning mushkullarini oson qilar emish. (I. Sulton, “Genetik”).

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilshunoslikda fe‘l va uning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ko‘p yillik tajribaga egadir. Fe‘llarni ma’no tomondan tadqiq qilish til boyligini ko‘rsatishda muhim hisoblanadi. Fe‘lning kelasi zamon qo‘shimchalari orqali yuzaga kelgan asimmetriya hodisasi fe‘llarning ma’no

ko‘lamini aniqlashga yordam beradi. Kelasi zamon qo‘shimchalari polisemantik bo‘lib, uning qaysi semani voqelantirayotgani nutq vaziyatiga ko‘ra anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A. Xojiev. Feъл. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Тошкент-1973. 129-бет.
2. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Рахматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент.1965.76-бет.
3. Ш.Шукуров. Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. Тошкент.1976. 9-бет.
4. F. Jumayeva, Ona tilidan saboqlar (Ma’ruza matnlari) – T.: “Qamar-media” nashriyoti, 2020. – 198-199 b.
5. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhamedova O‘zbek tili praktikumi.- T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2006. 305-b.